



YASHIL ENERGETIKA SAMARADOR LOYIHALARINI MOLİYALASHTIRISHDA TIJORAT BANKLARINING O'RNI

*Aliqulova Nilufar Bahodir qizi -
O'zbekiston Respublikasi
Bank-moliya akademiyasi doktoranti*

https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss4/a10

Annotatsiya. Ushbu maqolada global yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida maqsad qilib belgilab olingan yashil energetika sohasini rivojlantirish va moliyalashtirish ishlari rejasi va kutilayotgan natijasi ko'rib chiqilgan. Yashil iqtisodiyot oldida turgan qator muammolar va atroflicha yechimlar bo'yicha turli olimlar yondashuvlari o'rganilgan. Mamlakat iqtisodiyotida amalga oshirayotgan ishlar va kutilayotgan natijalar orqali yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kamchiliklarni aniqlash va jahon tajribalaridan foydalangan holda samaradorligini oshirishga qaratilgan harakatlar bo'yicha taklif hamda tavsiyalar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: yashil iqtisodiyot, yashil kredit, tijorat banklari, yashil energetika, yashil moliya, qayta tiklanadigan energiya, ekologik muammolar, yashil moliyalashtirish.

РОЛЬ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ В ФИНАНСИРОВАНИИ ЭФФЕКТИВНЫХ ПРОЕКТОВ ЗЕЛЕННОЙ ЭНЕРГЕТИКИ

*Аликулова Нилуфар Баходир кизи -
Докторант Академии банковского дела
и финансов Республики Узбекистан*

Аннотация: В данной статье рассмотрены план и ожидаемый результат развития и финансирования сектора зеленой энергетики, который ставится целью в процессе перехода к глобальной зеленой экономике. Изучены различные научные подходы к ряду проблем, стоящих перед «зеленой» экономикой, и комплексные решения. Даны предложения и рекомендации по действиям, направленным на выявление возможных недостатков в экономике страны и повышение ее эффективности с использованием мирового опыта.

Ключевые слова: зеленая экономика, зеленый кредит, коммерческие банки, зеленая энергетика, зеленое финансирование, возобновляемая энергетика, экологические проблемы, зеленое финансирование.

THE ROLE OF COMMERCIAL BANKS IN FINANCING EFFECTIVE GREEN ENERGY PROJECTS

*Alikulova Nilufar Baxodir kizi -
Doctoral Student of the Academy of Banking
and Finance of the Republic of Uzbekistan*

Abstract: In this article, the plan and the expected result of the development and financing of the green energy sector, which is set as a goal in the process of transition to the global green economy, are considered. Various scientific approaches to a number of problems facing the green economy and comprehensive solutions have been studied. Proposals and recommendations are given for actions aimed at identifying possible shortcomings in the country's economy and improving its efficiency using world experiences.

Key words: green economy, green credit, commercial banks, green energy, green finance, renewable energy, environmental problems, green financing.

Kirish. Dunyo texnologiya, iqlim, siyosat va iqtisod evolutsiyasi bilan o'zgarib borar ekan, tabiat, fuqarolar va biznes manfaati uchun ekologik va ijtimoiy maqsadlarni ijobiy muvozanatlashtiradigan o'zaro bog'liq amaliyotlar mavjud. Ekologik xavf va ekologik tanqislikni kamaytirish bilan birga, inson farovonligi va ijtimoiy tenglikni ta'minlash muvaffaqiyatini birinchi o'ringa qo'yadigan iqtisodiy model sifatida yashil iqtisodiyot yetakchilik qilmoqda.

Mamlakatimizda Yangi O'zbekiston barpo etish islohotlari natijasida tadbirkorlik faoliyati rivojlanishiga yaratilayotgan sharoitlar hamda aholining farovonligi oshib borishi evaziga elektr energiyasiga bo'lgan talabning tobora ortib borishi kuzatilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Pre-

zidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmonining 24-maqsadida "Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash hamda "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish" belgilab berilgan. Ushbu belgilangan maqsadga erishish yo'lida [1]:

- 2026-yilga kelib elektr energiyasi ishlab chiqarish ko'rsatkichini qo'shimcha 30 milliard kVt. soatga oshirib, jami 100 milliard kVt.soatga yetkazish;

- 2026-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 25 foizga yetkazish evaziga yiliga qariyb 3 milliard kub metr tabiiy gazni tejash;

- O'zbekiston energetika tizimining qo'shni davlatlar energetika tizimlari bilan barqaror ishlashini ta'minlash;

- sanoat tarmoqlarida yo'qotishlarni kamaytirish va resurslarni ishlatish samaradorligini oshirish;

- uy-joy kommunal xo'jaligi, ijtimoiy soha obyektlari va boshqa sohalarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish va energiya samaradorligini oshirish;

- elektromobillar ishlab chiqarish va ulardan foydalanish bo'yicha choralarni ko'rish;

- iqtisodiyot tarmoqlarining havoga chiqaradigan zararli gazlar hajmini bir birlik yalpi ichki mahsulot hisobida 10 foizga qisqartirish kabi maqsadli vazifalar belgilangan.

Mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy muammolarini bartaraf etish uchun qilinayotgan sa'y-harakatlarni davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevral "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejevchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-57-son qarori energiya samaradorligini oshirish orqali mamlakat hududlarida energiya taqchilligini ta'minlash borasida yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini amalga oshirishda amaliy qadam bo'ldi.

Global miqiyosda sodir bo'layotgan ekologik muammolarni bartaraf etish jarayonida tabiiy zaxiralar hajmi kamayib borayotgani, talab esa oshib borayotganini hisobga olgan holda iqtisodiy barqarorlikni ko'zlayotgan har bir davlat uchun yashil energetikani yo'lga qo'yish, elektr energiyasi barqarorligini ta'minlash va bu orqali aholi farovonligiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Elektr energiyasiga bo'lgan talabni qondirish maqsadida qayta tiklanuvchi energiya manbasi sifatida quyosh energiyasidan foydalanishni kengaytirish butun dunyo mamlakatlari yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida asosiy maqsadlari ichidan o'rin oldi. Mamlakatimizda ham bu ishlar bo'yicha atroflicha chora-tadbirlar olib borilmoqda va yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishga doir amaliy ishlar boshlangan.

Adabiyotlar sharhi. Global muammolardan biriga aylangan tabiiy resurslarning miqdori kamayib borishi va ularning o'rnini bosuvchi qayta tiklanadigan energiya kabi resurslardan foydalanish bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borish butun dunyo olimlari va iqtisodchilari oldida turgan muammolardan biridir. Xorijiy olimlardan Franklin A va Elin N, o'z tadqiqot ishlari natijasida qayta tiklanadigan energiyani qazib olish bilan bog'liq muammoning yechimi sifatida energiya ishlab chiqarish uchun tabiatga tayangan holda barqaror energiya ta'minotini yo'lga qo'yish bilan bog'liq chora-tadbirlardan foydalanish imkoniyatini ilgari suradi [2].

Huaping Sun va boshqa tadqiqotchi olimlar ekologik rivojlanish va yashil tiklanishni yashil mo-

liyalashtirish bilan assimilyatsiya qilishni kuchaytirish, mahalliy hukumatlarning yashil energiyani moliyalashtirish malakasini oshirish maqsadida korporativ ekologik tuzilmani ishlab chiqish, natijada yashil tiklanishni kuchaytirish va ekologik toza muhit va yashil tiklanishni yaratish maqsadida moliyaviy bozorda yashil energiyani moliyalashtirish, ekologik rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi instrument joriy etish lozimligi uzoq muddatli va o'rta muddatli samarali strategiyalarni ishlab chiqish kerakligi bo'yicha o'z xulosalarini taqdim etishgan [3].

S.A.Samar va boshqa xorijiy tadqiqotchilar 2007-2020-yillar oralig'ida 44 ta mamlakatning yashil moliya orqali (yashil obligatsiyalar) qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarishini sezilarli darajada rag'batlantirish bo'yicha tadqiqot ishlarini e'lon qilishgan. Olib borilgan tadqiqot natijasida muqobil energiyani moliyalashtirish uchun yashil obligatsiyalar ta'siri yuqori ekanligini aniqlashgan. Shuningdek, uzoq muddatda qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarish amaliyoti uchun yashil moliyaning ta'siri sezilarni darajada o'sayotgani aniqlangan [4].

Yashil energetikani moliyalashtirish uchun yashil banklardan foydalanishni yo'lga qo'yish natijasida toza energiyani moliyalashtirishga talabni oshirish va investorlar uchun sezilarli xavflarni kamaytirish imkoniyatini yaratish hamda bu orqali xususiy kapitalni safarbar qilishga yordam berish bo'yicha Amerika Qo'shma Shtatlar atrof-muhitni muhofaza qilish agentligi tomonidan xulosa qilingan [5].

Mahalliy tadqiqotchilar ham mamlakatimiz va xorijiy davlatlarda yashil iqtisodiyotga o'tish, yashil kreditlardan foydalanish, yashil obligatsiyalardan foydalanish tahlillarini o'rganib chiqib mamlakatimiz moliya bozoriga munosib uslublarni joriy qilish bo'yicha ilmiy xulosalarni taqdim etishmoqda. Xususan, yashil obligatsiyalar asosan mavjud yoki yangi yashil loyihalarni to'liq yoki qisman moliyalashtirish, qayta moliyalashtirish uchun qo'llaniladigan moliyaviy instrument sifatida qo'llanishi o'rganilib chiqilgan. Ushbu moliyaviy instrument orqali qayta tiklanuvchi energiya, ekologik toza transport vositalari, yashil inshootlar qurish, barqaror chiqindi boshqaruvi, yer resurslaridan barqaror foydalanish, biologik xilma-xillik va toza ichimlik suvi kabi loyihalarni moliyalashtirishda foydalaniladi [6].

Yashil iqtisodiyotda energetika sohasini iqtisodiy investitsion holatini tarmoqlar bo'yicha tahlili mahalliy tadqiqotchilardan Z.Nurov tomonidan olib borilgan. Tadqiqot natijasiga ko'ra davlat yashil iqtisodiyotga investitsiyalar oqimini oshirishda xususiy investitsiyalar uchun qulay investitsion muhit yaratish lozimligi, investitsion loyihalarni moliyalashtirishda xususiy sektor uchun davlat tomonidan yashil iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi siyosiy, moliyaviy va soliq dastaklarini qo'llashi samarali hisoblanishi xulosa qilingan [7].

BMTning “Barqaror rivojlanish maqsadlari” Konsepsiyasining mazmun-mohiyati bo‘yicha hamda mamlakatimiz iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish maqsad va vazifalari A.Isadjonov tomonidan o‘rganilgan[8].


Tahlil va natijalar. Yashil iqtisodiyot bu iqtisodiy tizim bo‘lib, uning asosiy maqsadi sayyora-mizning ekologiyasi va uni saqlab qolish bilan birga iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan. Yashil iqtisodiyot – inson hayoti va sog‘ligi uchun zarur bo‘lgan resurslarni, atrof-muhit va ekologiyani bir butun holda saqlab qolib ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarini bilan bog‘liq iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni amalga oshirishga asoslangan iqtisodiy faoliyatning yangi yo‘nalishi tushuniladi [9].

Yashil iqtisodiyot uchta ustunga asoslanadi – insoniyat, foyda va sayyora. Iqtisodiyotda harakatlanayotgan sog‘lom jamoalar sog‘lom ishchi kuchi bilan ta‘minlangan bo‘lishi kerak. Yashil iqtisodiyotning bir qismi bo‘lgan korxonalar sof mahsulotlar va xizmatlarni taqdim etish majburiyatini olgan holda, ularning hayot sifatini hech qanday tarzda pasaytirmasligiga ishonch hosil qilish kerak. Korxonalar barqarorlik konsepsiyasi va g‘oyalariga qat‘iy rioya qilinishiga ishonch hosil qilib, daromadlarni oshi-

rishlari kerak. Hech qanday biznes foyda olish uchun uning tarkibiy qismlarining tabiatini yomonlashtirmasligi kerak. Yashil iqtisodiyotning bir qismi bo‘lgan biznes sayyorani qayta tiklashga hissa qo‘shadigan mahsulot va xizmatlarni taklif qilishi kerak. Chiqindilarni yo‘q qilish va energiyani boshqarishning samarali choralarini amalga oshirishga rioya qilish talab qilinadi [10].

Yashil iqtisodiyot tamoyillari va xususiyatlaridan kelib chiqqan holatda amaliyotga tatbiq etish platformasini shakllantirish mumkin bo‘ladi. Bu vaziyatda bevosita yashil iqtisodiyot elementlari va ularning asosiy funksiyalari birlashmasini ishtirok etish turi orqali amalga oshirilishi ko‘zda tutiladi.


Barqaror rivojlanish maqsadlari, yoki Global maqsadlar deb nomlanuvchi qashshoqlikni yo‘q qilish, sayyorani himoya qilish va barcha insonlarga tinchlik va farovonlik olib kelishiga qaratilgan universal choralar bevosita yashil iqtisodiyotni to‘g‘ri tashkil etishda eng samarali va dastlabki yo‘l xaritasi hisoblanuvchi 17 ta maqsad belgilab olingan (1-rasm). BRM takibidagi jamlangan maqsadlarni amalga oshirish barobarida global muammolarni barcha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda mavjud bo‘lgan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muammolarga birdek yechim topishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqsadlar BMTga a‘zo barcha davlatlar, shu jumladan, O‘zbekiston tomonidan 2015-yil sentyabr oyida ma‘qullangan bo‘lib, ushbu maqsadlarga 2030-yilga qadar erishilishi kerak bo‘lgan 17 ta maqsad va 169 ta vazifa kiritilgan[11].



1-rasm. BMT tomonidan tasdiqlangan 17 ta BRM maqsadlari [12].

Global muammolarni hal qilish jarayonida yashil iqtisodiyotga o'tish maqsad va vazifalarini bajarish uchun uzoq muddat va katta miqdordagi mablag'ni talab etadi. Yashil iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismlari "yashil moliya" va "yashil moliyalashtirish" qo'llanilishi ko'p kuzatiladi. Yashil moliya deganda asosan ekologik toza, energiya samaradorligi yuqori va past uglerodli loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan investitsiyalar tushuniladi.

Yashil moliya xalqaro miqiyosda ham asosan atrof-mohitga yo'naltirilgan texnologiyalar, loyihalar, sanoat yoki biznes uchun keng ko'lamlı moliyalashtirish tizimi sifatida tavsiflanadi. Yashil moliya bevosita yashil kreditlar, yashil sug'urta, yashil obligatsiya kabi atrof-mohitga yo'naltiriladigan moliyaviy mahsulot yoki xizmatlarni o'z ichiga oladi.



2-rasm. Yashil moliya mahsulotlari (xizmatlari)

Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida global maqsadlarni amaga oshirish uchun yashil moliya mahsulotlari va xizmatlaridan foydalanish talab etiladi. Yashil moliya tarkibiga kiruvchi yashil kreditlar asosan maishiy quyosh panellari, elektromobillar, energiya samarador loyihalari va boshqalar kabi ekologik tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash uchun foydalaniladigan kreditlar hisoblanadi.

Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga yo'naltirilgan loyihalarni moliyalashtirish, kapital jalb qilish, ekologik mahsulotlar ishlab chiqarish orqali barqaror iqtisodiy rivojlanish darajasini yanada oshirishga qaratilgan ishlar olib boriladi. Jahon mamlakatlari tajribasidan kelib chiqib yashil loyihalarni amalga oshirish va ularni moliyalashtirish uchun yashil instrumentlardan keng hajmda foydalanib samarali natijalarga erishib kelinmoqda.

Tijorat banklari mintaqaviy va mamlakat darajasidagi bozorlardagi tajribasini hisobga olgan holda moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadi. Biroq, talab qilinadigan moliyalashtirish ko'lamini hisobga olgan holda xalqaro obligatsiyalar investorlari ham muhimdir. Yashil moliyalashtirishga talab ortib borayotganligi sababli, mahalliy va xalqaro moliya institutlari yashil va ekologik jihatdan

foydali loyihalarni qo'llab-quvvatlashdan manfaatdor investorlarga qaratilgan yangi mahsulotlarni joriy etmoqda.

Mamlakatimizda 2022-yil 19-oktabr kuni "Inno-Week" xalqaro innovatsion g'oyalar haftaligi doirasida, O'zbekiston Respublikasi Energetika va zirligi, Innovatsion rivojlanish agentligi va Birlashgan Arab Amirliklarining Energetika va infratuzilma vazirligi o'rtasida anglashuv memorandumı imzolandi. Ushbu memorandum vodorod va qayta tiklanuvchi energiya manbalari sohalarida texnologiya, tajriba, axborot va inson resurslarini almashish orqali tomonlarning o'zaro manfaatlarini rag'batlantirishga qaratilgan. Memorandum, shuningdek, ekologik toza energiyaga o'tish, vodorod va qayta tiklanuvchi energiya manbalari sohalarida qo'shma ilmiy va innovatsion loyihalar doirasida hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish va rivojlantirishni ko'zda tutadi [13].

Yashil iqtisodiyotga o'tish vaqtida amalga oshirilayotgan ishlar ko'lamini to'g'ri tashkil qilish hamda samarali natijaga erishish maqsadida energetika sohasini moliyalashtirish uchun tijorat banklari tomonidan bir qator ishlarni olib borish vazifa qilib yuklatilgan. Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2023-yilda Qayta tikla-

nuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-57-son qaroriga muvofiq[14]:

- jami 15,4 milliard AQSh dollari miqdoridagi mablag'larni yo'naltirish, shu jumladan 13,4 milliard AQSh dollari – davlat-xususiy sheriklik loyihalari doirasida investorlar mablag'lari, 1,1 milliard AQSh dollari – tijorat banklari kreditlari, 610 million AQSh dollari – korxonalarining o'z mablag'lari, 150 million AQSh dollari – xorijiy moliyaviy tashkilotlar mablag'lari va 100 million AQSh dollari ekvivalentidagi davlat budjeti mablag'larini yo'naltirishi;

- energetika vazirligi hamda tijorat banklarining ijtimoiy soha obyektlari, davlat organlari va boshqa tashkilotlarning bino va inshootlarida kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatish va ekspluatatsiya qilish bo'yicha mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi "Yashil

energiya" kompaniyasini (keyingi o'rinlarda – Kompaniya) tashkil etish to'g'risidagi taklifga rozilik berilishi;

- Markaziy bank va tijorat banklarining tadbirkorlik subyektlarining qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini sotib olish va o'rnatish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda ishlab chiqarish jarayonlarining energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlarini moliyalashtirish uchun 2023-yil 1-martdan boshlab "yashil energiya" bank moliya produktini amalga kiritish to'g'risidagi taklifini qo'llab-quvvatlash vazifalari belgilab olindi.

Muddatiga ko'ra qisqa davr ichida belgilangan maqsad va vazifalarni bajarish yuzasidan tijorat banklari tomonidan quyosh panellarini sotib olish uchun ajratilgan kreditlar qiymati 2023-yil 1-aprel holatiga ko'ra ma'lumot berildi (1-jadval).

1-jadval

Tijorat banklari tomonidan joriy yil davomida quyosh panellari sotib olish uchun ajratilgan kreditlar tahlili [15]

t/r	Bank nomi	Jami quyosh panellari sotib olish uchun ajratilgan kreditlar	
		Soni	Mlrd.so'm
Jami		2 795	227,6
1	O'zbekiston Respublikasi Milliy banki	7	81.4
2	O'zsanoatqurilishbank	364	35.7
3	Asaka bank	52	12.5
4	Agrobank	369	16.7
5	Ipoteka bank	143	15.6
6	Xalq banki	872	18.6
7	Qishloqqurilishbank	209	6.3
8	Mikrokreditbank	733	24.2
9	Turon bank	3	3.9
10	Aloqabank	4	1.8
11	Hamkorbank	2	0.1
12	Ipak yo'li bank	6	1.8
14	Kapitalbank	4	0.7
15	Davr bank	1	2.0
17	Asia Alliance Bank	21	4.6
19	Universal bank	1	0.3
20	Garant bank	4	1.6

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2023-yilda Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-57-son qaroriga muvofiq belgilangan tartibda tijorat banklari tomonidan quyosh panellarini sotib olish uchun ajratilgan qiymatlarni yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin.

Jami kreditlar soni 2795 tani tashkil etadi, 20 ta ishtirok etuvchi banklar orasida eng ko'p sonlik kredit taqdim etuvchi bank sifatida Xalq banki 872 ta kreditga mablag' ajratgan. O'zbekiston Respublikasi Milliy banki kreditlar soni kam bo'lishiga qaramasdan eng ko'p qiymatdagi 81.4 milliard so'm qiymatidagi jami ajratilgan kredit qiymatining 35 % ini tashkil qilgan miqdorda kredit ajratilgan. Ajratilgan kredit miqdorining 90 % dan ko'p qismi kredit

soni jihatidan ham ko'p miqdorda ajratilgan. Asosiy banklardan Xalq banki, Mikrokreditbank, Agrobank, O'zsanoatqurilishbank, Qishloqqurilishbank, Ipoteka bank, Asaka banklari tomonidan jami 2690 ta kredit chiqarilishi keltirilgan. Quyosh panellarini sotib olish uchun ajratilgan jami 2795 ta kredit soni bo'yicha 96 % qismi asosiy 7 ta banklar tomonidan berilishi ko'rsatilgan. Qolgan 4 % i ajratilgan kredit miqdori va soni jihatidan kichik hajmli ajratmalar hisoblanadi. Hamkorbank, Universal bank va Kapital bank tomonidan ajratilgan kredit miqdori mos ravishda 0.1-0.3- 0.7 milliard so'm qiymatida ajratilishi belgilangan. Quyosh panellarini sotib olish uchun ajratilayotgan kreditlar qiymati bo'yicha aksariyat yuqori hajmli kreditlar asosan davlat tijorat banklari tomonidan ajratilishi keltirilib o'tilgan. Umumiy hajmda ajratilayotgan kreditlar yashil

energiyadan foydalanish uchun xizmat qilishda va samaradorlikka erishish uchun qilinayotgan chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida yillik qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun asosiy poydevor bo'lib xizmat qilishi kutiladi.

Xulosa va takliflar. Amalga oshirilgan tadqiqotlar va tahlillar asosida yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida energetika bo'yicha energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiyaga o'tish bo'yicha quyidagilarga e'tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz:

Birinchi, global miqyosda yashil iqtisodiyotga o'tish maqsadlariga muvofiq harakatni amalga oshirishda ekologik innovatsiyalardan foydalanishni kengroq yo'lga qo'yish lozim. Bu orqali ko'rilayotgan chora-tadbirlar atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga erishish mumkin.

Ikkinchidan, yashil iqtisodiyotga o'tish maqsadlarini qo'llab-quvvatlovchi yashil moliya instrumentlarini joriy qilib foydalanishni ko'paytirish, bu orqali rejalashtirilgan moliyaviy barqarorlikka erishishga va global muammolarni mamlakat miqyosida bartaraf etishga erishish mumkin.

Uchinchi, ekologik muammolar uchun ishlab chiqilayotgan yechimlarni amalga oshirishda tartibga soluvchi davlat ichki va xalqaro-huquqiy bazasini shakllantirish, hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlash ishlarini oshirish zarur.

To'rtinchi, ekologik xavfsizlikni ta'minlash maqsadida mamlakat aholisi yashash sharoitlarini yengillatib berishga xizmat qiluvchi innovatsion ekologik toza texnologiyalardan foydalanishni ko'paytirish uchun hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlash ishlarini olib borishi va nodavlat-notijorat tashkilotlariga ham yuklash ishlarini olib borishi zarur.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 28.01.2023. PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>
2. Franklin Amuakwa-Mensah, Elin Nasstrom., Role of banking sector performance in renewable energy consumption. Vol. 306, 15 January 2022. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0306261921013222>
3. Huaping Sun, Gulzara Tariq, Ik Joong Youn, Sofia Mansoor. Impacts of green energy finance on eco-friendly environments. Vol.79, Dec. 2022. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0301420722005785>
4. Samar S.Alharbi, Md Al Mamun, Sabri Boubaker, Syed Kumail Abbas Rizvi. Green finance and renewable energy: A worldwide evidence. Vol.118, February 2023. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0140988322006284>
5. United States Environmental Protection Agency https://www.epa.gov/sites/default/files/2018-10/documents/usepa_greenbankingstrategies_october_2018.pdf
6. Bannopov F. Yashil obligatsiyalar va ularning keng ko'lamlil rivojlantirish imkoniyatlari. Moliya va Bank ishi jurnali. 3 (2022) <http://journal.bfa.uz/index.php/bfaj/article/view/34/32>
7. Nurov Z. Yashil iqtisodiyotda energetika sohasining iqtisodiy-investitsion holati va rivojlanish tendensiyalari. Central Asian Academic journal of scientific research. Vol.2. issue 5, 2022.
8. A.A.Iasdjanov. "Yashil iqtisodiyot":xususiyatlari va rivojlanish omillari. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/14/10>
9. M.Pardayev. "Yashil iqtisodiyot nima?", maqola. [Yashil iqtisodiyot nima? - zarnews.uz](https://www.zarnews.uz)
10. Sociology group rasmiy internet sayti. <https://www.sociologygroup.com/green-economy/>
11. BMT rasmiy sayti <https://www.un.org/en/chronicle/article/goal-17-enabling-sustainable-future-through-joint-action-countries-and-communities-revitalized>
12. Birlashgan Millatlar Tashkiloti O'zbekiston vakolatxonasi rasmiy sayti. <https://uzbekistan.un.org/uz/110345-17ta-dunyoni-ozgartirishga-yonaltirilgan-barqaror-rivojlanish-maqsadlari>
13. O'zbekiston Respublikasi Energetika Vazirligi rasmiy internet sayti. <https://minenergy.uz/uz/news/view/2211>
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2023-yilda Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoych texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi"gi 16.02.2023 PQ-57-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6385716>
15. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki ma'lumotlari 01.04.2023.



КРЕДИТ МЕХАНИЗМИНИНГ ЭЛЕМЕНТЛАРИ ЎРТАСИДАГИ АЛОҚАДОРЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ ЙЎЛЛАРИ

Гадоев Сўҳроб Жумакулович -
Термиз давлат университети

Молия кафедраси мудири, PhD, доцент

https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss4/a11

Аннотация. Кредит механизмининг самарадорлиги бевосита унинг элементлари ўртасидаги алоқадорликнинг уйғунлиги таъминланганлиги билан белгиланади. Хусусан, кредит механизмидаги элементлардан биронтасининг самарасиз ишлаши бутун механизмининг самарадорлигига салбий таъсир кўрсатади. Жумладан, кредит шартномасини тузишда камчиликларга йўл қўйилиши кредит rischi даражасининг ошишига олиб келади. Мақолада кредит механизмининг элементлари ўртасидаги алоқадорликни таъминлашга қаратилган илмий тақлифлар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: кредит, кредит механизми, кредит шартномаси, кредитлаш шакллари, кредитларнинг таъминоти, кредит rischi.